Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI TALABALARNING INGLIZ TILIDA OG’ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVIJLANTIRIRISH IMKONIYATLARI

Shaxobova Sitora Baxromovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
sitorashaxobova28@gmail.com



Annotatsiya: Quyidagi tezisda talabalarning ingliz tilidan og’zaki nutqni rivojlantirish uchun sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari tahlil qilindi. Talabalarning doimiy og’zaki nutqini rivojlantirish uchun mashq qilish imkoniyatlarini, shu bilan birga, tez fursatda qayta aloqa berish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishdagi ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, sin’iy intellektni mavjud an’anaviy mashg’ulotlar bilan integrasiya qilishning samarali tomonlari o’rganiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, og‘zaki nutq kompetensiyasi, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, speaking, qayta aloqa, individual ta’lim, mustaqil ta’lim.

Аннотация: В данном тезисе анализируются широкие возможности использования средств искусственного интеллекта для развития устной речи студентов на английском языке. Рассматривается их значение в создании условий для регулярной речевой практики студентов, оперативного предоставления обратной связи, а также эффективной организации самостоятельной учебной деятельности. Кроме того, изучаются эффективные стороны интеграции искусственного интеллекта с традиционными формами обучения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, компетенция устной речи, английский язык, коммуникативная компетенция, говорение, обратная связь, индивидуальное обучение, самостоятельное обучение.

Abstract: This thesis analyzes the broad possibilities of using artificial intelligence tools to develop students’ English speaking skills. It examines their role in providing opportunities for regular speaking practice, offering rapid feedback, and effectively organizing independent learning activities. In addition, the effective aspects of integrating artificial intelligence with traditional classroom instruction are explored.

Keywords: artificial intelligence, speaking competence, English language, communicative competence, speaking, feedback, individualized learning, independent learning.

Asosiy qism

Bizga ma’lumki, hozirgi raqamli texnologiylar rivolangan paytda ta’lim sohasida yangi metodlar hamda vositalarni amaliyotga tadbiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Xususan, sun’iy intellektningning ta’lim jarayoniga shiddat bilan kirib kelishi chet tillar o’qitishda, jumladan, ingliz tilini o’qitishda yangi yondashuvlar uchun sharoit yaratmoqda. Ingliz tilini talabalrga o’rgatarkanmiz, asosan ularning og’zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish har qanday pedagogning bosh maqsadi hisoblanadi (Richards,2008). Ammo mavjud bo’lgan an’anaviy metodlar bilan talabalarni og’zaki nutqini rivojlantirishga yetarli vaxt topish pedagog uchun qiyinchiliklar keltiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt vositalarining bugungi kundagi o’rni beqiyosdir. Buning boisi, sun’iy intellekt vositalari talabalar bilan har xil kommunikativ vaziyatlarda fikr berish,qulay fursatlarda ingliz tilida muloqot qilish va savollarga oldindan tayyorlanmagan javoblarni ifodalashga yordam beradi. Misol uchun, talaba har qanday sohadagi muloqotni tashkil etish uchun turli xil mavzularda rolli suhbatlarni tashkil etishi mumkin. Bunda sun’iy intellekt asosan talabalarning og’zaki nutqini rivojlantiruvchi virtual yordamchi vazifasini bajarishi kerak, tayyor javob beruvchi vosita emas. Ma’lumki individual yondashuvni ta’minlash - sun’iy intellekt vositalarining zarur bo’lgan imkoniyatlaridan hisoblanadi. An’anaviy chet tili o’qitish darslarida talabalar bilan bir vaxtning o’zida individual shug’ullanish ma’lum bir qiyinchiliklar tug’dirsa, sun’iy intellekt har bir talaba bilan bir vaxtning o’zida aynan bir mavzu uchun talabalarning darajasi hamda ehtiyojiga moslab savollar bera oladi. Talabalar

ko’pincha berilgan savollarga o’z bilimlariga suyanib javob beradilar hamda ularning til bilim darajalariga ko’ra suhbat davom etadi. Buning natijasida talaba faqat tayyor dialoglarni o’qib bermasdan, balki tabiiy kommunikativ muhitga yaqin sharoitda erkin nutqni ifodalashga harakat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalari talabalarning og’zaki kommunikativ ko’nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishuchunqo’shimcha sharoit yaratadi. Talabalar mustaqil ta’lim jarayonida ham ingliz tilida uzluksiz og’zaki muloqot jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Mazkur holat ayniqsa dars paytida yoki katta auditoriyada gapirish hamda o’z nutqini erkin ifodalashda qiyinchilikka duch keladigan talabalar uchun erkin va keng mashq qilish imkonini beradi. Talabalar pedagog tomonidan berilgan bir xil kommunikativ topshiriqni xohishlariga qarab takrorlashlari mumkin, bu esa talaba javobini takomillashtirib og’zaki nutqni rivojlantirishiga olib keladi (Nation and Newton,2008).

Tezkorlik bilan qayta aloqa berish sun’iy intellektning yana bir muhim imkoniyatlaridan hisoblanadi. Og’zaki nutqni rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar yakunida sun’iy intellekt til o’rganuvchilarga suhbat jarayonida qilgan grammatik xatolar, leksik tanlov, nutqning aniqligi hamda talabalarning qay darajada mantiqan javob berganliklarini aniqlaydi hamda talabalarga qisqa ravishda amaliy tavsiyalar berishlari mumkin. Biroq bu tavsiyalar o’qituvchi bergan bahoning o’rnini to’liq bosmasligi lozim. Sun’iy intellekt vosita sifatida ishtirok etib, metodik jarayonning yakuni baholanishi o’qituvchi vakolatida saqlanishi lozim.

Talabalarning og’zaki nutqini rivojlantirishda sun’iy intellekt orqali amalaga oshiradigan yana bir muhim omil bu promptlardan foydalanishdir. Talabalarga shunchaki SI bilan muloqot qil degan mashq berishdan uzoq bo’lish lozim. Buning o’rniga aynan kommunikativ maqsadlarga yo’naltiruvchi promptlar berish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun: Act as a potential donor. Ask me one question at a time about my charity, my role, and how donations are used. Ask at least five questions. At the end, decide whether you would donate to my charity and explain why.

Ushbu savollarga e’tibor beradigan bo’lsak, savollarni talabalar oldindan bilmaydi,

shuning uchunham talaba har qanday promptga asoslanib beriladigan savollarni o’qib tushunishi va o’zi o’ylzb mustaqil savollarga javob berishni ta’minlaydi. Buning oqibatida og’zaki mashqlar yanada tabiiy va kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashadi.

Dars davomida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda pedagogning o’rni beqiyosdir. O’qituvchi og’zaki nutq ko’nikmalrini rivojlantirish yo’lidagi topshiriqlarning maqsad va mohiyatini belgilab beradi, talabalarga amalga oshirish bo’yicha aniq yo’riqnomalar beradi. Zarur bo’lgan til birliklari hamda kommunikativ strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, yakunda talabalr natijalarini atroflicha tahlil qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt vositalari talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ular talabalarga individual muloqot muhiti yaratish, muntazam pg’zaki nutq mashqlarini tashkil etish, spontan nutqni rivojlantirish, tezkor qayta aloqa olish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi (Richards, 2008). Biroq sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish uchun topshiriqlar aniq pedagogik maqsad asosida ishlab chiqilishi va o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinishi zarur (UNESCO,2023). Sun’iy intellekt va an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlarining o‘zaro uyg‘unlashtirilishi talabalarning kommunikativ faolligini oshirish va ingliz tilida erkinroq gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe Publishing.

2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Pearson Education.

3. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking.

Routledge.

4. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.

5. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. UNESCO.

